

MUHAMMAD YUSUFNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Pazliddinov Sherzodbek Qurbonovich

Namangan viloyati Davlatobod tumani MMTBga qarashli 64-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fanlar metodbirlashma rahbari

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning obraz yaratish mahorati va obraz yaratishda o'ziga xos ijodkor ekanligi, shoir yaratgan obrazlarning o'ziga xos xususiyatlari, milliyligi, shu bilan birga umuminsoniyligi bilan ajralib turishi va yana boshqa jihatlari haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: obraz, voqelik, xarakter, yuksak, ijtimoiy, aniqlik, e'tibor, lo'ndalik, o'ziga xoslik, hayotiylik.

Аннотация: В данной статье говорится о способности народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа создавать образ и о том, что он является уникальным творцом в создании образа, характеристике образов, созданных поэтом, их национальной принадлежности и в то же время также обсуждаются их универсальность и другие аспекты.

Ключевые слова: образ, реальность, характер, высокое, социальное, точность, внимание, резкость, оригинальность, жизненность.

Annotation: This article talks about the ability of the People's Poet of Uzbekistan Muhammad Yusuf to create an image and the fact that he is a unique creator in creating an image, the characteristics of the images created by the poet, their nationality, and at the same time their universality, and other aspects are also discussed.

Key words: Image, reality, character, high, social, accuracy, attention, bluntness, originality, vitality.

Muhammad Yusuf obraz yaratish bo'yicha ham mahoratli ijodkor hisoblanadi. Shoir tomonidan yozilgan she'rlarda ijodkor tomonidan yaratilgan bir qancha obrazlarning o'ziga xos xususiyatlari, milliyligi, shu bilan birga umuminsoniyligi tomonlama ham ajralib turishini kuztishimiz mumkin.

Obraz, badiiy obraz - voqelikni faqat san'atga xos usulda o'zlashtirib va o'zgartirib xarakterlovchi estetik kategoriya. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham obraz deb yuritiladi. Voqelikni obrazli tarzda aks ettirish adabiyot va san'atning asosiy belgilaridan biridir. Obrazli aks ettirish alohida shaxslarda, hodisalarda, muayyan his-tuyg'ularda hayotning umumiy, qonuniy tomonlarini ko'rsatishni taqozo qiladi.

Badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda, badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz deyiladi. Obraz (timsol) tushunchasining keng va tor tushunchalari mavjud.

Keng ma'nodagi obraz tushunchasi ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Tor ma'noda esa badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Obrazda obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Badiiy obrazning o'ziga xos xususiyatlari real voqelikka va fikrlash jarayoniga bo'lgan munosabatda aniq namoyon bo'ladi. Obraz vokelikning badiiy in'ikosi sifatida real mavjud obyektning hissiy aniq, tayin zamon va makonda davom etgan, moddiy tugal, o'zicha yetuk xususiyatlariga ega bo'ladi.

Muhammad Yusuf adabiy merosida turfa obrazlar ko'p, ammo shoirning Navoiy obraziga alohida e'tibor qaratganligini "Navoiy" she'ri orqali bilib olishimiz mumkin.

Xitoblarga ko'milib, hotam,
Buyuk shoir, deyish-ku oson.
Hech kimi yo'q Navoiyni ham,
U ham mendek bir g'arib inson.
Minoradek marmar haykali
Ko'rinsa ham xatto Hirotda,
Qavmin uyi tursa chayqalib,
To'yi tatirmikan u zotga?..

Ijod olamida juda ko'plab shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodlari haqida tanishish jarayonida buyuk shoir Alisher Navoiyni o'zlariga g'oyibona ustoz deb bilganliklarini o'qishimiz mumkin. Shoir Muhammad Yusuf ham ko'p ijodkorlar qatori Navoiyni o'z she'rida tilga oladi.

Qadimgi turkiy til asoschisi, qadimgi turkiy til bayrog'ini yuqori darajaga ko'targan va qadimgi turkiy tilning boshqa tillardan kam emas, aksincha yuqori darajada ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan isbotlab berganligi ko'pchilik uchun yanglik emas. She'rga e'tibor berar ekanmiz, Navoiyning buyuk shoir ekanligi ijod qilib o'zidan keyingi avlodlarga ma'naviy xazina qoldirish maqsadida turmush qurmaganligi, umrining asosiy qismini esa ijod qilib o'tkazganligini har qanday holatda ham yurtining qadrlil insonlarini ma'naviyatini oshirish uchun garchi o'sha vaqtlarda qadimgi turkiy tilda ijod qilish mumkin bo'lmasada, ham fors, arab va boshqa tillarni bilish orqali shuni anglab yetadiki, qadimgi turkiy til o'zining ma'no va mazmundorligi bilan boshqa tillardan farqlanishini isbotlab beradi.

Shoir o'zining "Ajab dunyo" she'ri orqali esa ham Navoiyni va Boburni esga olib biz yoshlarga ularning qanday buyuk shoirlar bo'lganligini eslatishga harakat qiladi.

Ikki buyuk shoir, ikki musofir —
Navoiy Hirotda, Kobulda Bobur.
Sizni o'ylatmasmi bu jumboq bu sir,
Navoiy Hirotda, Kobulda Bobur...

Buni tasodifmi atayin, ayting,
 Qitmir qismat o'yini deyinmi yo bir?
 Ko'rib kuy, Turkiston, ikki shoh, bayting —
 Navoiy Hirotda, Kobulda Bobur.

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida Muhammad Yusufning yuqoridagi she'ri orqali eslashi va aynan yod olishi bejizga emasdek g'o'yo, chunki Bobur va Muhammad Yusuf Andijonda tavallud topgan bo'lsa, ularning shoir sifatidagi maqsadi ham deyarli bir xil, taqdir taqozosi bilan yashab o'tgan umri ham bir xil ekanligini tushunib yetish mumkin. "Ajab dunyo" she'rida nafaqat Boburni balki Navoiyni ham esga olgan holda yozgan. Shoir she'ri orqali ikki buyuk insonlarni tilga olishida ham katta ma'no bor. O'z davrida Navoiy va Bobur yaratgan ruboiylari, g'azallari, asarlari orqali o'zlari yashagan mamalakatdagi yurtdoshlarining ma'naviy jihatdan boy bo'lishlariga o'z xosl jihatlarini bilan ajralib turishiga, komil insonlar bo'lib hayot kechirishlariga o'z hissalarini qo'ygan davlat va jamoat arboblari sifatida ham ulkan imkoniyatlar eshigini oshib bergan daholar desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Anjidon farzandi hisoblangan Bobur haqida so'z borganga bilamizki, umrini ko'pi aynan taqdir taqozosi bilan musofirchilikda o'tgan bo'lsada ammo o'z yurtiga sadoqati va urf-odatlariga, insoniylik jihatidan esa boshqalardan ajralib turishini, o'zbeklarga xos bo'lgan ota-onaga hurmat, farzandlariga esa mehribon ota, yurtidagi fuqarolarga adolatli va samimiy davlat rahbari bo'lishi ham bugun bizni hayratga soladi. Bobur qayerda shoh bo'lsa ham yuqoridagi kabi jihatlarini bilan bugunhi otlarga, yoshlarga ibrat bo'luvchi obraz sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi. Muhammad Yusuf ijodiga nazar tashlar ekanmiz, shoirning obraz yaratishda o'ziga xos ijodkor ekanligini, u yaratgan obrazlarning o'ziga xosligini, milliyligini, shu bilan birga umuminsoniyligi tomonlama ham ajralib turishi bejiz emas. Bu hayotda yashar ekanmiz albatta kimlardandir, qaysidir jihatlarini o'zimizga ibrat sifatida olishimiz mumkin bo'ladi. Biz yuqoridagi ikkala she'rda tilga olgan ijodkorlardan ham albatta hammamiz o'zimiz uchun ibrat bo'larli narsalarni olishimiz mumkin. Muhammad Yusuf ijodida bundan tashqari yana bir qancha obrazlarni ham yuqori darajada ko'rsatib o'tganligini ko'rishimiz mumkin. Hamma shoir va yozuvchilar qatori Muhammad Yusuf ijodida ham ota-onalarga, hurmat, vatanga sadoqat, opa-singillarni va yor-u do'stlarni qadrlash kabi umuminsoniylik jihatidan ham yuqori darajada ekanligini shoir tomonidan yozilgan she'rlar orqali ham bilib olishimiz, o'qib o'rganib anglab yetishimiz lozim. Bejizga mamlakatimizning eng qadrligi va nomdor san'atkorlari ijodkor she'rlariga kuy bastalab ularni qo'shiq qilib aytgani yo'q, buning sababi bor albatta shoir she'rlaridagi so'zlar ularning qalbini rom etganligi, sodda va tushunarli eng asosiysi dard borligi bilan ham boshqa shoirlarning she'rlaridan har tomonlama farq qilishini qo'shiqlarni dastlab eshitib qalbimizdan joy olishi bilan qo'shiqdagi so'zlar kimning qalamiga mansub ekan degan qiziqish paydo bo'lishiga

ham, sababchi bo'lgan. Shoir o'zbeklarga xos bo'lgan yana bir jihatga alohida to'xtalib o'tadi, bu ham bo'lsa akalarning go'yoki otalarimiz kabi o'z singillariga merh-oqibatini tarannumidir desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Buni shoir tomonidan yozilgan "Singlimga maktub" she'ri orqali his etishimiz mumkin.

Qachon xat yozgandim senga, bilmayman,
 Qofiya bilan band bugun tosh ko'nglim.
 Yolg'iz akang bo'lib,
 Yoningda yurmay...
 Kechir meni, singlim,
 Kechir meni, singlim.

Muhammad Yusufning she'rlarida shuning uchun ham dard, insoniylik, mehr-muhabbat, o'z yaqinlariga bo'lgan oqibatni yuqorida yozilgan she'rdagi jozibador so'zlar orqali ham anglab yetish lozim bo'ladi. Garchi shoir yaqinlaridan uzoqda yashasada, ijodkor sifatida ularga yertarlicha vaqt ajrataolmagan bo'lsada lekin ularni tarixda qolgan she'rlari orqali singilni bir obraz darajasida ulug'lab esga oladi. Shoir yozganidek, akalar sifatida singillarimizga bo'lgan merh-oqibatimiz bilan ham butun dunyoga ibrat bo'lib kelmoqdamiz. Bunday oliy baxtga qayerda bor, albatta bizning jannatmakon yurtimizda bor, chunki bizning millatda o'ziga xoslik, umuminsoniylik, inson qadr-qimmatini yuqori darajada ulug'lanadi. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat ham insonlarni qadrlashga qaratilayotgani bizning yurtimdagi barcha insonni o'ziga yarasha jamiyatda alohida shu yurt farzandi sifatida o'rni bor ekanligi bizni quvontiradi va yuqorida tilga olgan shoirlarimiz kabi bizlar ham yurtimizga chin dildan xizmat qilishda davom etishimiz kerak bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Muhammad Yusufning obraz yaratsih mahorati orqali mamalakatimizda qanchadan qancha insonlar yurtimiz uchun o'zlarining chinakam ma'noda hissalarini qo'shib kelayotganligini garchi ularning ayrimlari oramizda yo'q bo'lsada lekin ulardan qolgan ma'naviy boyliklar bugungi kunda yoshlarimiz qalbidan munosib o'rin egallab kelayotgani bizni ilm kishisi sifatida xursand qiladi. Muhammad Yusufning she'rlari orqali yaratilgan har bir obrazlar esa bizning yurtimizga munosib xizmat qilishga jamiyatda esa o'z o'rnimizni inson sifatida topishimizga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodiriy A. Ijod mashaqqatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995
2. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: "O'zAJBIT" markazi, 2003
3. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2007.
4. Sh. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanov xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent "O'zbekiston" 2017
5. Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent: "PHAROS AMBITION" 2022